

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA METODIK
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
TAMOYILLARI**

**ПРИОРИТЕТНЫЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ**

**PRIORITY PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF
METHODOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE MUSIC TEACHERS**

Sobirova Oygul Alimovna

Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Makzur maqolada Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning ustuvor tamoyillari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, kompetentlik tushunchasiga berilgan mualliflarning qarashlari xorijiy va milliy miqyosida tahlil qilingan. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Абстрактный. В данной статье понятие компетентности анализируется педагогически, психологически и методически. Также в статье анализируются взгляды авторов на понятие компетентности в зарубежном и национальном масштабе. Представлены мнения о профессиональной компетентности учителя музыки.

Abstract. In this article, the concept of competence is analyzed pedagogically, psychologically, and methodically. The article also analyzes the views of the authors on the concept of competence on a foreign and national scale. Opinions about the professional competence of the music teacher are presented.

Kalit soʻzlar. *Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, musiqa oʻqituvchisi kompetentligi, kadrlar tayyorlash, pedagogik mahorat, taʼlim muhiti, faoliyat, pedagog.*

Ключевые слова. *Компетентность, профессиональная компетентность, компетентность учителя музыки, подготовка кадров, педагогическое мастерство, образовательная среда, деятельность, педагог.*

Keywords. *Competence, professional competence, music teacher competence, personnel training, pedagogical skill, educational environment, activity, pedagogue.*

Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish tabiiy ravishda oʻziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Shunga koʻra mazkur jarayonida umumiy didaktik tamoyillar bilan birga bevosita musiqa taʼlimi uchun xarakterli boʻlgan yetakchi gʻoyalarni ham aniqlab olish maqsadga muvofiq sanaladi. Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning ustuvor tamoyillari xususida soʻz yuritishdan avval tayanch tushunchaning lugʻaviy, nazariy mohiyati toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Lugʻaviy jihatdan lotin hamda yunon tillaridan tarjima qilinganda “tamoyil” (lot. “principium”; yunon. “αρχή”) atamasi “asos”, “boshlangʻich negiz”, “eng muhim gʻoya” maʼnolarini anglatadi. Nazariy talqiniga koʻra bu tushuncha “shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayoni uchun yetakchi boshlangʻich gʻoya, muhim asos”; “qandaydir nazariya, taʼlimot, fan va shu kabilarning asosiy, boshlangʻich holati”, “ilmiy nazariya va qonunlarni yaratish, huquqiy hujjatlarni yuritish uchun asos boʻladigan dastlabki qoida, tasdiqlovchi gʻoya”; asosiy, boshlangʻich qoida, rahbariy gʻoya, shuningdek, shaxsning turli vaziyatlardagi mustahkam axloqiy, huquqiy, dunyoqarash borasidagi pozitsiyasini namoyon qiluvchi ichki ishonchi maʼnolarini ifodalaydi.

Oʻzbek tilidagi elektron manbalardan birida “tamoyil” tushunchasi “xatti-harakat yoki baholash uchun qoʻllanma boʻlgan taklif yoki qiymat” deb ham talqin

qilingan. Bizningcha, bu o'rinda tushunchani ta'riflashda xatolikka yo'l qo'yilgan. Dastlabki xatolik fikrning grammatik jihatdan noto'g'ri ifodalanganida ko'rinadi. Ta'rifda "xatti-harakat yoki baholash" deyilgan. Bizningcha, fikr "xatti-harakat yoki ...nidir baholash" (masalan, xatti-harakat yoki *faoliyat*"ni baholash) shaklida ifodalanishi zarur edi. Keyingi xatolik "taklif yoki qiymat" tushunchalarining noo'rin qo'llanilganligida ko'rinadi. Ya'ni, baholash uchun taklif yoki qiymat qo'llanma (*asos*) bo'lmaydi. Zero, "taklif" tushunchasi lug'aviy ma'nosiga ko'ra arab tilidan tarjima qilinganida buyruq, topshiriq, vazifa, burch, majburiyat kabilarni ifodalaydi. Nazariy jihatdan esa "muhokama qilish, amalga oshirish yoki qabul qilish uchun taqdim etilgan fikr, masala, maslahat va shu kabilar"ni anglatadi. Taklif qilingan fikr qabul qilinishi ham qabul qilinmasligi ham, amalga oshirilishi ham amalga oshirilmassligi ham mumkin. Tamoyil esa barcha uchun majburiy bo'lgan asosiy, muhim g'oyaga nisbatan qo'llaniladi. Qolaversa, "qiymat" atamasi ham tamoyilning mohiyatini to'la yoritmaydi. Bu tushuncha o'rinda ustuvor mezon (kriteriy), o'lchov yoki ko'rsatkich atamaları qo'llanilganida fikr mantiqan to'g'ri ifodalangan bo'lardi. Shu bois fikr quyidagicha ifodalashi lozim: muayyan harakat (faoliyat)ni baholash uchun asos bo'luvchi muhim g'oya yoki mezon.


Bizning fikrimizcha, pedagogik nuqtayi nazaridan "tamoyil" atamasi muayyan ta'limiy yoki tarbiyaviy jarayonning muvaffaqiyatli, barqaror kechishini ta'minlovchi, o'qitish yoki tarbiyalash borasidagi kutilgan natijani kafolatlovchi ahamiyatli asos, standart xarakterdagi g'oyadir.

So'nggi chorak asr mobaynida zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy elementi sifatida AKT e'tirof qilinmoqda. Darhaqiqat, XXI asr ta'limining "asosiy dastagi" AKT va ularning ta'limiy xarakterga ega dasturlari sanaladi. Shu bois mavjud sharoitda amalga oshirilayotgan pedagogik tadqiqotlarda ham ta'lim va tarbiya jarayonida AKTning o'qitish hamda tarbiyalash imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. M.Ye.Korolev, I.A.Deriy tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda raqamli didaktikaning mavjud imkoniyatlariga tayanib, bo'lajak pedagoglarda metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining samarasini ta'minlashda ustuvor bo'lgan quyidagi tamoyillar keltiradi:

individualligi hamda faoliyatdagi faolligiga ko'ra pedagog ijtimoiy mavqeining yuqoriligi, boshqa subyekt va predmetlardan ustuvorligi; maqsadga muvofiqlik; moslashuvchanlik va ko'nikuvchanlik; muvaffaqiyatning kafolatlanganligi; hamkorlik va hamjihatlikda ta'lim olish; amaliyotga yo'nalganlik; murakkablikning ortib borishi; ta'lim muhitining "to'yinganligi"; multimediyalilik; baholashning ketma-ketligi.


Tadqiqotni olib borish davrida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan nazariy tahlil, pedagogik amaliyotni kuzatish natijalariga tayangan holda quyidagi tamoyillarning bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ustuvor ekani aniqlandi (1-rasm):

1-rasm



1-rasm. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning umumiy didaktik tamoyillari

Ayni o'rinda aytib o'tish joiz, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish vaqtida faqat umumiy didaktik, balki xususiy-metodik tamoyillar ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot mavzusini nazariy o'rganish va amaliyotni kuzatish asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi xususiy-metodik tamoyillar ham amaliy qiymatga ega, degan xulosaga kelindi (2-rasm):



2-rasm. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning xususiyy-metodik tamoyillari

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida talabalarning kreativ tafakkuriga tayanish ularda ijro va vokal postanovkasida "muammoni qo'yish; muammoni hal qilish yuzasidan ko'plab xilma-xil yechimlarni ilgari surish; yechimlar orasidan boshqalardan farqli, g'ayrioddiy yechimni ajratib olish; yangi detallarni qo'shish orqali g'ayri oddiy yechimni ifodalovchi g'oyani chuqurlashtirish; optimal g'oyalarni qayta tahlil qilish va tanlash" kabi kompetensiyalarning namoyon bo'lishi uchun zarur sharoitni yaratadi. Ya'ni, ijro va vokal postanovkasini qo'yish vaqtida yuzaga keladigan muammo (u nimadan iborat ekani)ni anglash, muammoni hal qilish yuzasidan ko'plab xilma-xil yechimlarni ilgari surish (turli nafas mashqlari (ko'krak yoki diafragma, qorin bilan nafas olish), ijro uslublari, improvizatsiyadan foydalanish); turli ijro uslublari, improvizatsiyalar orasidan boshqalardan farqli, g'ayrioddiylarini ajratib olish; turli ijro uslublari, improvizatsiyalarga yangi detallarni qo'shish; tanlangan optimal yechimni qayta tahlil qilish va tanlash orqali talabalarda musiqa ta'limi va uni o'qitish asoslarini ham nazariy ham amaliy jihatdan muvaffaqiyatli o'zlashtirishga erishiladi.

Shunday qilib, muayyan tamoyillar barcha didaktik jarayonlarda pedagogik faoliyat mazmunida ustuvorlik kasb etadi. Tamoyillar tegishli yo'nalishda ta'limiy faoliyatning tashkiliy-konseptual, amaliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishini

ta'minlovchi "mayoq" vazifasini bajaradi. Shu sababli bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ustuvor ahamiyatga ega didaktik tamoyillarni aniqlash maqsadga muvofiq sanaladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishda umumdidaktik tamoyillar (xususan, ta'limning kasbiy yo'naltirilgani, ta'limning integratsiyasi va fanlararo aloqadorlik, o'quv faoliyatining ilmiy xarakter kasb etishi, nazariya va amaliyot birligi, talabalarning ta'limiy faolligi), hech shubhasiz, ustuvordir. Tadqiq uchun tanlangan ta'limiy jarayonning o'ziga xosligi, o'qitish mazmuni, uni samarali tashkil qilishning amaliy jihatlari xususiy-metodik tamoyillar (chunonchi, o'qitishning kollaboratsiyaviy xarakterga egaligi, ta'lim muhitining "to'yinganligi", interfaollik, talabalarning kreativ tafakkurga egaligi, innovatsion, vitagen, benchmarking yondashuv) ham ahamiyatli ekanini tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Kasbiy mалакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими тўғрисида"ги Низом / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида"ги 287-сон (2020 йил 15 май) Қарори (2-илова) // <https://lex.uz/docs/4814154>.
2. Компетенция//<https://sberuniversity.ru/edutech-club/glossary/932/#:~:text=Компетенция>
3. Компетенция//<https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kompetentsiya-uz>.
4. Зимний И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж. Высшее образование сегодня. – М.: 2003. – № 5. – С. 45.
5. "Kasbiy mалакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими тўғрисида"ги Низом / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 287-сон (2020 йил 15 май) Қарори (2-илова) // <https://lex.uz/docs/4814154>.

6. Селевко Г.К. Педагогические компетенции и компетентность // Ж. Сельская школа. – М.: 2004. № 3. – С. 9-10.
7. Большой энциклопедический словарь // <http://www.vedu.ru/BigEncDic/29421>.
8. Usmonaliyev I.M. [“Tarixiy tafakkur” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy va pedagogik talqini: yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari.](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hsELKTgAAAAJ&citation_for_view=hsELKTgAAAAJ:d1gkVwhDpl0C) https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hsELKTgAAAAJ&citation_for_view=hsELKTgAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
9. Панкова Т.В. Сущность, содержание и структура информационно-коммуникационной компетентности студента ВУЗа // Научно-метод.элек.ж. “Концепт”. – М.: 2013. – Т. 4. – С. 206.